

Tadqiqot uz

# ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ

## МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2021

- Ҳуқуқий тадқиқотлар
- Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- Физика-математика фанлари ютуқлари
- Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- Кимё фанлари ютуқлари
- Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

31 МАРТ
№26

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР" МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 26-КЎП ТАРМОҚЛИ ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ**

**8-ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ 26-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"**

**ЧАСТЬ-8**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN 26-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL RESEARCH IN UZBEKISTAN"**

**PART-8**

**ТОШКЕНТ-2021**

**УУК 001 (062)**
**КБК 72я43**

**"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]**

**"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар"** мавзусидаги республика 26-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 март 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 9 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**
Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**
Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фарғона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидаги изланишлар**
Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**
Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**
PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

**6.Журналистика**
Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**
Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**8.Адабиёт**
PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**
Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**
Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**
Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**
Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**
Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**
Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**
Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**
Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**
Доцент Сохадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**
Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**
Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**
Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**
Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)

**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**
Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**
Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**
Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**
Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

***Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.***

**© Муаллифлар жамоаси**
**© Tadqiqot.uz**

**PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

## АДАБИЁТ

**1. Shamsiyeva Gulshod Rizayevna**
MAKTUBLARDA QALB AKSI ........................................................................................................ 7

# АДАБИЁТ

## MAKTUBLARDA QALB AKSI

**Shamsiyeva Gulshod Rizayevna**
Buxoro viloyati G`ijduvon tumanidagi 1-maktabning
ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi Tel: +998(91)401 8414
gulshoda.2020@mail.ru

**Annotatsiya:** Maqolada xatlarning Abdulla Qodiriy romanlari syujetidagi voqealarni bir-biriga bog`lovchi vosita ekanligi,yozuvchi maktublar orqali turli toifadagi kishilar dunyoqarashi, ularning muayyan paytdagi kayfiyatini mahorat bilan ochib berishi haqida so`z boradi. Maktublar A.Qodiriyning inson qalbidagi mehr va qahr tuyg`ularini ifodalashda benazir san`atkor ekanini namoyon etadi.

**Kalit so`zlar:** yozuvchi,ijodkor, shaxsiyat, ijod, xat, milliylik, urf-odatlar,inson qalbi, roman, andisha, syujet voqealari, jahon adabiyoti, xalq dostonlari.

O`quvchilarning dunyoqarashini muntazam boyitib borish, mustaqil fikrlash ko`nikma va malakalarini yanada rivojlantirish kabi maqsadlardan kelib chiqib, adabiy ta`limda maktubshunoslik janriga ham alohida e`tibor qaratilishi lozim. Uzluksiz adabiy ta`lim jarayonida maktublardan foydalanish muhim o`rin tutadi. Ma`lumki, faqatgina asarlari yuzasidan fikr yuritish orqali ijodkorga yetarlicha baho berib bo`lmaydi.Shu jihatdan olib qaraganda,ijodkor xarakteri,dunyoqarashi va hayotiy maslagi u yaratgan asarlaridagina emas, balki asar qahramonlarining o`zaro yozishmalarida yanada mukammallashadi.

Hammamizga ma`lumki, Abdulla Qodiriy asarlari o`zbek adabiyoti tarixida alohida o`rin tutadi. Yozuvchining romanlarida, ayniqsa, urf-odat va qadriyatlar yorqin aks ettirilgan.Adibning "O`tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" asarlari minglab o`quvchilarning qalbidan joy olgan. Bu asarlarning jozibador, ta`sirchan bo`lishida maktublar alohida o`rin tutadi. "O`tkan kunlar" romanida o`n to`rtta, "Mehronbdan chayon" romanida esa oltita maktub mavjud. Bu maktublarda Otabek va Kumush, Anvar va Ra`noning bir-biriga muhabbat izhori, sog`inchi, hayajonlari ifodalangan. Undan tashqari, Yusufbek hojining o`g`liga yozgan xatlari, Homidning tuhmat-bo`htondan iborat xatlari, boshqalarning maktublari ham bor. Asar syujetidagi ko`pgina voqealar bevosita shu maktublarga bog`liq tarzda kechadi.. Qahramonlar o`rtasidagi munosabatlarni, ular taqdirini belgilashda maktublar alohida o`rin tutadi.

Maktublarning bu xususiyati nafaqat o`zbek,balki jahon va rus adabiyotida ham aks etgan. Yoki bo`lmasa, "Alpomish" dostonini olaylik. Dostonda maktub qahramonlar taqdirini bir-biriga bog`lovchi "ko`prik" bo`lib xizmat qiladi. Jumladan, agar Barchin maktub yozib, Alpomishni qalmoq pahlavonlarining maqsadidan xabardor qilmaganida Hakimbek Alpomish bo`lolmas, bo`linib ketgan elni birlashtirolmas edi,nazarimizda. Yoki Aleksandr Sergeevich Pushkinning "Yevgeniy Onegin" romanidagi Tatyananing maktubi mazkur asarning eng asosiy sahifalaridan biridir.Yoki Gyotening "Yosh Verterning iztiroblari" romani qahramonlarining maktublarida dardli dil nolalari, sog`inchi, mehri, dardi, alami, nafrati juda ta`sirchan aks etadi.

Abdulla Qodiriyning "O`tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" asarlaridagi maktublarda o`sha tarixiy davrdagi zamon kishilarning so`zlash tarzi,muomala-munosabatlaridagi o`ziga xosliklar haqida ma`lumot beriladi.Otabek,Kumushning xatlari ishq-muhabbat izhori yoki aldangan o`ksik qalbning alam "chakillab" turgan achchiq so`zlaridan iborat bo`lsa,Yusufbek hojining maktublarida qadim Sharq donishmandlariga xos ma`rifat bilan nurlangan qalbni yorqin aks ettirgan.

Yoki Kumushning quyidagi maktubini olaylik: "Vafosizga. Men o`zimning bu maktubimni ko`z yoshlarim bilan yozaman.Negaki,hozirda mening ko`z yoshlarimgina emas, butun borlig`im siyohdir…Sizga yangi yor, menga uyatsizlikning qurboni bo`lish muborak! Kumush emas,

Tuproqbibi yozdim".

Kumushga nisbatan "Mehrobdan chayon" romani qahramoni Ra`noning ancha dadil,pishiq-puxta ekanligi uning maktublaridan ham ayon bo`ladi.Ra`no mudarrisning qizi bo`lgani, hovlilarida bolalar o`qitilgani, uylariga har xil odamlar kelib turgani bois Kumushga nisbatan ancha ziyrak. U saroy mirzolarini hasad o`tida kuydirgan Anvarday zukko yigitni ham fikr bahsida yengadi, nafaqat fikr bahsida, balki hayot-mamoti hal bo`layotgan kezlarda o`zining jasorati bilan ham uni qoyil qoldiradi.Uchrashish nechog`lik tadbirsizlik, noma`qulchilik bo`lmasin, Ra`noning :"Men bilan oxirgi marotaba vido`lashingiz, siz nash`u namo qilgan joyda meni halokat kutadir!" jumlasi ham fikrimizning isbotidir.

A.Qodiriy o`z romanlarida maktublarni qahramonlarining "dil oynasi" sifatida ko`rsatadi. Bu oynada ularning dunyoqarashi, ma`naviy-madaniy darajasi aniq bilinib turadi. Otabek va Kumush, Anvar va Ra`noning maktublari ularni Shayx Sa`diy,Fuzuliy devonlarini ixlos bilan mutolaa qilishlarini, qalbi ulardagi ishq otashiga yo`g`rilgan satrlardan ta`sirlanganligini aniq bildirib turadi.Albatta, yozuvchi qahramonlarining kitob mutolaasi bilan muntazam bandligini biror o`rinda ta`kidlamaydi. Agar Otabek ma`rifatdan bexabar, mol-dunyoga hirs qo`ygan bir savdogar bo`lganida sevgisi yo`lida bunchalik jasorat ko`rsatmas va maktubida: "Umidim yulduzi, orzum chechagi, hayotim tiragi Kumushga!Kinoya va achchiqlar bilan to`liq bo`lgan maktubingizni oldim. Xatni yozgan chog`ingizda tamom bir o`t ichida,g`azab dengizida suzganingiz gavdalanib,ko`z o`ngimda o`tdilar…Siz o`zingizni tuproq bilan tenglashtirmakchi bo`lgansiz,lekin men hozir Kumushga ham qanoatlanmay, Oltinbibi deb atamoq fikriga tushdim",-deb dil izhori qilolmas edi.

Darsdan ko`zlangan maqsadlarga erishish uchun maktublarga bag`ishlangan sinfdan tashqari darslar tashkil etish yoki to`garaklarda ish olib borish ham yaxshi samara beradi.Mustaqil izlanishlarni tashkil etishda vazifalar qanchalik aniq bo`lsa, o`quvchilar faoliyati shunchalik yengil kechadi. Xulosa qilib aytganda, ushbu romanlardagi maktublar Abdulla Qodiriyning inson qalbidagi mehr va qahr tuyg`ularini ifodalashda benazir san`atkor ekanini namoyon etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. A.Qodiriy.O`tkan kunlar.T.:G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti.
2. A.Qodiriy.Mehrobdan chayon.T.:O`qituvchi.
3. ZiyoNET.uz materiallari.

# "ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР" МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 26-КЎП ТАРМОҚЛИ ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

## (8-қисм)

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович
**Мусаҳҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.03.2021

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000